



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 130-137 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SOLIQ IMTIYOZLARINI SAMARALI QO'LLASH – IQTISODIY ISLOHOTLARNING ASOSIY SHARTI



Zarif Oripovich Axrorov

i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali, e-mail: z.akhroroff@gmail.com

Avazxon Talgatovich Agzamov

i.f.f.d., professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada soliq tizimi va soliqqa tortishning mohiyati, soliq siyosati va uning iqtisodiy islohotlar sharoitidagi asosiy yo'nalishlari, soliq imtiyozlarini optimallashtirishga qaratilgan soliq siyosatining ahamiyati o'rganilib, uni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq tizimi, investisiyalar.

Аннотация. В статье рассматривается сущность налоговой системы и налогообложения, налоговой политики и ее основные направления в контексте экономических реформ, значение налоговой политики, направленной на оптимизацию налоговых льгот, а также разрабатываются выводы и предложения по ее совершенствованию.

Ключевые слова: налог, налоговая политика, налоговая льгота, налоговая система, инвестиции.

Abstract. The article reveals the essence of taxes and the tax system, tax policy and its main directions in the context of economic reform, the importance of tax policy aimed at optimizing tax benefits, and also outlines the conclusions and recommendations for its improvement.

Keywords: tax, tax policy, tax incentive, tax system, investment.

1. Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishi va unda modernizatsiya qilish, uning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq tizimini takomillashtirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Aynan, soliq tizimini takomillashtirishda soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarini soliq munosabatlarini takomillashtirish, ularni harakatga keltiruvchi va davlat budjeti to'liqligini ta'minlash uchun maqbul soliq imtiyozlarini taqdim etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimiz Prezidentining "Imtiyozlar ayrim korxonalarga emas, balki alohida ishlab chiqarish va xizmat turlarini rag'batlantirish maqsadida beriladi. Imtiyozni ro'kach qilib, eng muhim faoliyat turlarini to'la monopoliya qilib olishga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Soliq imtiyozlari berishda individual yondashuvlardan voz kechib, ularni

faqat iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlari uchun qo'llash amaliyotiga o'tishni taklif etaman" [4, 2-b.] deya ta'kidlagan fikrlari davlatning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda soliq imtiyozlaridan to'g'ri va samarali foydalanish, soliq imtiyozlarini maqbullashtirishni taqozo etadi. Zero, soliq imtiyozlarining asosiy maqsadi orqada qolayotgan va endi rivojlanayotgan sohalarini ko'tarilishini rag'batlantirishdan iboratdir.

Soliq imtiyozlarini maqbullashtirish bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirishning muhim yo'nalishi bo'lishi muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi islohotlar bosqichida davlatning soliq siyosatini aniqlash va belgilashda ularning istiqboliga asoslangan bashoratlarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Lekin, respublikamiz uchun hali qirralari to'la ochilmagan mazkur sohaning barcha yutuq va afzalliklarini o'rganishga bo'lgan munosabat hamda e'tiborning bugungi ahvolini qoniqarli deb bo'lmasligi, bu sohada chuqur va samarali tadqiqotlar olib borish, uning ko'lamini oshirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, eng avvalo, soliq siyosatining istiqbolini belgilashning mazmuni, vazifalari, xususiyatlari, usullari, samaradorligi kabi o'ziga xos jihatlari anglashni talab qiladi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda "soliq imtiyozlari" tushunchasiga ta'riflar e'tirof etilsada, aynan "soliq imtiyozlarini maqbullashtirish" tushunchasiga fikrlar sayozligicha qolmoqda.

Soliq tizimini takomillashtirishga munosib hissa qo'shgan rossiyalik olim S.V. Barulin hammuallifdagi maqolada soliq imtiyozlarini maqbullashtirish (optimallashtirish) borasida fikr yuritib, mavjud soliq imtiyozlarini qayta ishlash va muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilish maqsadida uning natijaviyligi va samaradorligiga baho berish asosida monitoring tizimini yaratish lozimligini ta'kidlaydi va soliq imtiyozlarini maqbullashtirish bo'yicha o'zlarining yo'nalish va metodlarini, kriteriya va ko'rsatkichlarini bayon etib o'tishadi [8, 118-b.].

N.V. Milyakov soliq imtiyozlarini maqbullashtirish to'g'risida fikr yuritib, soliq imtiyozlari jami soliq summasining yarmidan ortiq qismini tashkil etmasligi lozimligini ta'kidlab o'tadi [9, 172-b.].

Vatanimiz iqtisodchi olimlaridan B.E. Toshmurodova soliq munosabatlarini optimallashtirish doirasida soliqlardan rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish, soliqlar vositasida tadbirkorlarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim shartlaridan deb hisoblaydi [10, 68-b.]. Shuningdek, u soliq imtiyozlarining maqbul ishlashi uchun soliq mexanizmi sharoit yaratishi lozimligini ta'kidlaydi.

J.J. Urmonov soliq imtiyozlarini maqbullashtirish maqsadida uning samaradorligini oshirish uchun soliq to'lovchilar orasida imtiyozlarni asl mohiyatini tushuntirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi lozimligini ta'kidlaydi [11, 142-b.]. Berilayotgan imtiyozlar sodda, tushunarli va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, shuningdek berilayotgan imtiyozlar adreslik va vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi lozimligi e'tirof etiladi.

Aksariyat iqtisodchi-olimlar soliq imtiyozlarini maqbullashtirish bo'yicha Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlardagi iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lmagan imtiyozlarni bekor qilish lozimligini o'z ishlarida talqin etishadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyoslama tahlil kabi an'anaviy usullaridan foydalaniladi. Xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchilarning soliq munosabatlariga oid ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilinib, natijalar asosida xulosalar shakllantirildi. Yuqorida keltirilgan usullardan foydalangan holda tahlillarni olib borish, soliq imtiyozlarni qo'llash borasida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

4. Tahlil va natijalar

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitlarida bugun O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan soliq siyosati, bir tomondan, budjetning daromadlar bazasini nisbatan maqbul darajada ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lsa, boshqa tomondan YaIMning o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi kichik biznes sohasi sub'ektlari uchun soliqqa tortishning imtiyozli tartiblarini shakllantiradigan ancha munozarali va har doim ham o'zaro bog'lanavermaydigan chora-tadbirlar ortidan shakllanayotir. Bu esa soliq siyosatini ikki jihatdan: avvalo iqtisodiy islohotlarning maqsadlarini keng ma'noda ro'yobga chiqarishda uning haqiqatan yagona va uzluksiz ekanligi, unda bir-birini to'ldiruvchi vositalarning mavjudligi nuqtai-nazaridan, ikkinchidan esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida soliq siyosatini amalga oshirish vositalarining ta'siri jihatidan ko'rib chiqishning maqsadga muvofiqligini taqozo etadi.

Harakatlar strategiyasida belgilanishicha, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida soliq sohasidagi islohotlarni amalga oshirish va soliq munosabatlarini takomillashtirish, shu orqali mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash holatini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi [1], O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi [3] birinchi navbatda iqtisodiyotning sifat va mazmun jihatdan yangi shakliga, ya'ni yangi O'zbekistonni barpo etishga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni belgilab bormoqda. Ma'lumki, 1997 yil qabul qilingan, so'ng yangi tarkibiy o'zgartirilgan 2007 yilda qabul qilingan Soliq kodeksi shu davr ichida tarkib topgan soliqlar, ularni tartiblashtirish mexanizmlari yakka hukmronlik xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan edi.

Amaldagi soliq kodeksi va soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi bevosita va bilvosita soliq siyosatini samarali boshqarish yo'nalishlarini belgilashda sharoit yaratib beradi. Ammo aytish joizki, qonunosti va me'yoriy hujjatlarni haddan ziyod qabul qilinishi va yangilanib borilishi (ayrim ekstremal holatlardan tashqari, ya'ni tabiiy ofatlarning yuzaga kelishi, koronavirus pandemiyasi holatlarini yuzaga kelishi va ularga tenglashtiriladigan holatlardan tashqari) samara keltirmaydi. Soliq kodeksini mukammal ishlab chiqilishi va bunda soliq to'lovchilar manfaatlarini maksimal darajada hisobga olish ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni qabul qilishiga ehtiyoj qoldirmaydi.

Barcha turdagi kapital qo'yimlalariga imtiyozlar hajmi jamlanmasini soliq to'lovining dastlabki miqdorining yarim qismi ko'rinishida cheklashning amaldagi tizimi (jumladan, korxonalarning xarajatlari bo'yicha) ushbu soliqning faqat fiskal maqsadlarga yo'naltirilganida maqsadga muvofiqdir. Bu shu bilan aniqlanadiki, ko'rsatib o'tilgan

cheklashlar budjetning daromadlar bazasida barqarorlashtiruvchi vazifasini o'taydi va shu bilan "ko'pdan-ko'p" investitsiyalar holatida budjetga daromad solig'idan tushadigan daromadning sezilarli kamayishiga yo'l qo'ymaydi.

Monopol korxonalarning rentabellik darajasini soliqlar bilan cheklash va uni barcha korxonalarga qo'llashga doimiy intilish ham muammo tug'diradi. 1992-1997 yillarda shunga o'xshash mexanizmlardan keng foydalanish bunday choralarning samarasi past ekanligini ko'rsatdi. Rentabellikning o'sishiga yo'l qo'ymaslikka urinish xarajatlarning o'sishiga moyillik yaratadi, bu esa inflyatsiya sharoitlarida uning texnologik zanjirda o'z-o'zidan tarqalishini anglatadi. Boz ustiga, monopoliyachi korxonalar uchun bunday sharoitlarda daromad hajmini tartibga solishning yagona yo'li sifatida tannarxni oshirish qoladi, bu esa sanoat monopoliyasining yuqori darajasida xarajatlarning o'sishini anglatadi.

Mana shuning uchun ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish muayyan bir korxona uchun iqtisodiy tomonlama qulay, chunki faqat ugina joriy xarajatlarni tejaydi va shartli ravishda olinadigan doimiy xarajatlar va tannarxda ulushining ortishiga olib borishi barobarida, daromadlar hajmini quvvatlab turadi. B.E. Toshmurodovanning ta'kidlashicha, nafaqat yangi tashkil etilgan korxonalarga, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalariga ham moliyaviy jihatdan tiklanishlariga, yangi ishlab chiqarish texnikalariga ega bo'lishlari uchun moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlariga soliqlar orkali imkoniyat berish lozim [10, 69-b.].

Amaldagi soliq tizimi investitsion jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining qarz mablag'laridan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Hisobga olish va soliqqa tortishning mavjud mexanizmi investitsion kreditlarning foizlari bo'yicha xarajatlarni tannarxga kiritishga yo'l qo'ymaydi. Shunday foizlarni (shuningdek, aylanma mablag'lardagi kreditlar) bo'yicha o'z daromadlarining yetishmovchiligidan ortadigan miqdorda sof daromaddan to'lash nafaqat kredit resurslarining qiziqarlilik darajasini kamaytiradi, balki ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ko'pchiligi uchun yetib bo'lmas narsaga aylantiradi. Kreditlardan uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalash uchun obligatsiyalar ko'rinishida foydalanish imkoniyatlari ham katta emas, chunki ular bo'yicha foizlar sof daromaddan to'lanadi.

Portfel investitsiyalari bo'yicha soliq imtiyozlarining yo'qligi nafaqat fond bozorining rivojlanishini susaytiradi, balki ishlab chiqarishning, ayniqsa ilm-fanga bog'liq samarali tarmoqlariga kapital oqimiga ham to'sqinlik qiladi [7, 52-b.]. Aktivlar qiymatining oshishidan kelidigan daromad (jumladan, qimmatbaho qog'ozlar) to'g'rilangan stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Amaldagi qonunchilik bo'yicha bu daromadlar faqat inflyatsiyadan asraydi (ko'pincha, qog'ozda), lekin ularni soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar yo'q, bu esa ilm-fan sohasidagi loyihalarni moliyalashni qiyinlashtiradi, tez o'suvchi moliyaviy aktivlarga har qanday portfel investitsiyalari foydasiz bo'lib qoladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun mol-mulk solig'i amal qilishi bois, portfel investitsiyalari bilan bog'liq vaziyat yanada murakkablashadi. Mamlakatda moliyaviy bozor rivojlanmagan ekan, bu nihoyatda kuchli sezilmaydi, lekin xususiylashtirish va aksionerlashtirish jarayonining rivojlanishi ushbu muammoni, shubhasiz, birinchi o'ringa olib chiqib qo'yadi. Soliqqa tortish rejimi dividendning ko'p

sonli tortilishiga olib keladi, ya'ni: uni to'layotgan sub'ektning daromadi tarkibida; uni aksiya egasiga to'lash manbaida; aksiya egasining hisobraqamidagi mablag'lar tarkibida; aksiya yoki obligatsiyalarning balans qiymatini soliqqa tortishda.

Mol-mulk solig'i ko'zda tutilmagan investitsion fondlardan tashqari, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun portfel investitsiyalari o'ta foydasizga aylanadi. Chunonchi, ular qimmatbaho qog'ozlar balasida uzoq muddat turadigan real investorlar uchun eng ko'p darajada foydasizdir. Buni hozirdanoq inobatga olish kerak, yo'qsa, portfel investitsiyalariga tarmoqlararo kapital oqimining shakli sifatidagi ozgina rag'bat yana ham kamayib ketadi.

Portfel investitsiyalarga imtiyozlar mexanizmi to'g'risidagi masalaning qonuniy qayta ishlanishini boshlash maqsadga muvofiq, unga daromad va mulkiga qarab soliqqa tortish kiradi. Shuning uchun, investitsion soliq kreditini joriy qilish zaruriyati – bozor mexanizmlariga moslashgan soliq tizimini yaratishda olg'a tashlangan qadam. Lekin soliq imtiyozlarining bu turi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hozirgi sharoitlarida keng ommalashishi qiyin. Soliq krediti berilishi mumkin bo'lgan investitsiya yo'nalishlari (import o'rnini bosuvchi, ilmiy va atrof-muhitni himoya qilish uchun uskunalar, stavkalar va sanoat robotlari va h.k.) bor. Bunda kredit summasini uskuna narxi summasidan cheklanishi soliq to'lovini kamaytirish hajmi bo'yicha cheklov bilan to'ldirilishi mumkin. Bozori rivojlangan mamlakatlar, jumladan Rossiya Federatsiyasi tajribasidan ko'rinishicha, soliq inspeksiyalariga soliq krediti bo'yicha xohlagan (inflyatsiyaning murakkab darajasidan oshmaydigan) stavkani o'rnatish vakolatini berib qo'yish investitsion soliq krediti oldida jiddiy cheklov hisoblanadi. Ayni vaqtda, jahon tajribasida investitsion soliq krediti mexanizmi keng ko'lamli kapital qo'yilmalarini qo'llab-quvvatlash va ularni amalga oshirish vositasi sifatida o'zini namoyon qilgan.

Ishlab chiqarish faoliyatining kam jozibadorligi va inflyatsiya shunga olib keladiki, kichik biznes sub'ektlari uchun vaqtinchalik bo'sh mablag'larni depozitlarga qo'yish mikroiqtsodiy jihatdan eng samaralisi bo'lib qoladi. Natijada, moliyaviy resurslarning ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga o'tishi yuz beradi, negaki, amalda aynan muomala bugungi kunda kredit resurslarining real bozor foizi ostidagi yagona iste'molchisi bo'lib qolmoqda.

Joriy soliq tizimida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning mustahkam dastagi sifatida faol amortizatsiya siyosatining yo'qligi asosiy kamchiliklardan biridir. Bu masalalar bo'yicha qonunchilikning ishlab chiqilishi hali boshlang'ich bosqichda turibdi.

Soliq tizimini modernizatsiya qilishning yuqorida ko'rsatib o'tilgan dolzarb jihatlari soliq tizimini modernizatsiyalashning ba'zi yo'nalishlarini ko'rsatish imkonini beradi [6, 83-90 b.]. Avvalo, Soliq kodeksida keltirilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda chet sub'ektlarga bevosita investitsiyalarga daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni kengaytirish maqsadga molikdir. Bu, birinchi navbatda, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan firmalarga taalluqli. Real investorlarning daromadlarini qat'iy cheklash bilan birga, portfel investitsiyalariga ham imtiyozlar kerak.

Shu maqsadda, agar qimmatbaho qog'ozlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining balansida bir yildan ortiq qolgan bo'lsa, ular qiymatining o'sishidan keladigan daromadga 50 foizlik pasaytirilgan soliq stavkalarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, soliq deklaratsiyasi asosida individual investorlar uchun ham shunga

o'xshash imtiyozni o'rnatish kerak. Shu bilan yakka daromadlarni deklaratsiyalash ham rag'batlantiriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun inflyatsiya sur'atlariga indeksatsiyalangan daromadning soliqqa tortilmaydigan minimumini joriy qilish maqsadga muvofiq. Minimum miqdorini, hech bo'lmaganida, jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning birinchi intervalini 50 foizi miqdorida o'rnatish kichik biznesni inflyatsiyadan himoya qilish imkonini beradi.

Soliq kodeksida hozirgi vaqtda kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim tartibi, o'tgan yillar uchun zararlarning soliqqacha qoplanishi ko'zda tutilgan. Lekin ushbu tartib ham keltiradigan cheklovlardan xoli emas. Birinchidan, zararlarni qoplash soliq to'lovini kamaytirish bo'yicha cheklovning 50 foizi miqdorida qoplanishi, ikkinchidan esa belgilangan muddatda zararlarni qoplashda majburiy bir xildagi o'lchov ko'zda tutilgan. Inflyatsiyaning yuzaga kelgan hozirgi sur'atlarida bu shuni anglatadiki, ushbu imtiyoz faqat zararining birinchi yilda qoplanadigan qismining 1/5 qismiga beriladi, zararining qolgan summasi esa deyarli inflyatsiya tomonidan "yutib yuboriladi". Shuningdek, Soliq kodeksida zararlarni keyingi qoplash tartibi ko'zda tutilgan.

Qator davlatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zararlarni o'z xohishlari bo'yicha kelgusi yoki undan keyingi yillarga joylashtirish huquqiga egalar. Bu budjet tushumlari miqdoriga sezilarli ta'sir o'tkazmasdan, daromad miqdorining tebranishlarini samarali to'g'rilab turish imkonini beradi. Budjet tanqisligi sharoitida bunday yondoshuvni joriy qilish qiyin, lekin istiqbolda undan foydalanish imkoniyatlarini butunlay chetga surib qo'yish ham kerak emas [5, 94-99 b.].

Kichik biznes sub'ektlariga daromad solig'i bo'yicha va real soliq stavkasining kamayishiga olib boradigan imtiyozlar bilan birgalikda, bizning soliq tizimimizda soliqning samarali stavkasini oshiradigan ikkita elementi bor. Bular – tannarxni qoplash xarajatlarining me'yorlangan kattaligini oshirish uchun jarima sanksiyalari va rentabellikning chegaraviy darajalarini oshirish uchun jarima sanksiyalari. Ularning amal qilishi shunga olib keladiki, nominal soliq stavkasi 10 foiz bo'lgani holda daromadni olib qo'yishning real me'yoriy 25 foizgacha boradi.

Bugun bank va sug'urta tashkilotlariga nisbatan mustaqil soliq siyosatini yuritishga urinish katta ahamiyatga ega, uning birinchi qadami to'lovchilarni mustaqil toifalarga ajratishdir. Mazkur institutlar tomonidan daromad solig'ini 10 foiz stavka bo'yicha to'lanishi asosan fiskal yuklanishga ega, chunki u to'lovchilarning ushbu toifasi bo'yicha tushumlarning nisbiy katta barqarorligini ta'minlaydi va qator hollarda bankning daromad solig'i stavkasini samarali oshirish imkonini beradi.

5. Xulosa va takliflar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish jarayonidagi tafovutlar hozirgi vaqtda ularni teng bo'lmagan moliya-soliq sharoitlariga qo'yadi, ularning raqobat o'rinlari, turli aktivlarga investitsiyalarning samaradorligini baholashni buzadi va umuman, bank hamda sug'urta xizmatlarining narxlarini nisbatan oshiradi. Sug'urta tashkilotlari bo'yicha soliqqa tortishning ikki tartibi nazarda tutilmoqda: sug'urta faoliyatidan daromad bo'yicha soliq, daromadning soliqqa tortilishi. Bu soliqlarni

hisoblashni qiyinlashtiradi.

Mavjud soliq tizimining asosiy tuzatuvchan vazifalari quyidagilar: xo'jalik yuritishning barcha sub'ektlari uchun soliq sharoitlarining barqarorligini ta'minlash; soliq xizmati xodimlarining vakolat darajalarini oshirish; soliq qonunchiligini turlicha tushunish va Soliq kodeksi bilan zid kelmasligi uchun soliqqa tortish bo'yicha yo'riqnomalarni takomillashtirish. Yagona, barqarorlashgan siyosatni o'tkazish soliq siyosatida prinsipial yangi yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Izlanish davomida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Soliqqa tortishda tarmoq tafovutlarini hisobga olish amortizatsiya siyosatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu qatorda, daromad solig'i doirasida imtiyozlarni mulk bo'yicha soliqqa tortish ko'lamini bilan bog'lagan afzal, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini soliq bilan qo'llab-quvvatlash esa soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini kiritishni taqozo etadi.

2. Soliq tizimining fiskal xususiyati bilvosita soliqqa tortishga, jumladan, qo'shimcha qiymat solig'i va aksiyalarga qaratishga muvofiqlashtirilishi zarur. Bunda bilvosita soliq to'lash mexanizmini murakkablashtirishdan voz kechish, soliq tizimining aylanmadan soliq tartibiga qaytishiga yo'l qo'ymaslik va amalda sof moliyaviy oqimlarni QQSdan ozod qilish kerak bo'ladi.

3. Soliq imtiyozlarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish yo'nalishida takomillashtirish - ularni maqbullashtirishning asosiy zamonaviy yo'nalishi ekanligini nazarda tutib, bu borada yuqorida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatimizda raqobatdoshlikni ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois soliq imtiyozlarini taqdim etish xizmatlarini davlat tomonidan tartiblashtirilishi masalasini aynan shu yo'nalishda takomillashtirish hozirgi paytda butun dunyo mamlakatlari, jumladan, mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim choralardan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y. <https://lex.uz/docs/4674902>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3802378>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi. //Zarafshon, 2017 yil 23 dekabr. www.uza.uz.

5. Ahrorov Z.O. Increase budget revenues of various levels by economically limiting tax paying potential //European Journal of Business and Management.–2019. DOI. 10.7176/EJBM – 2019. – T. 10. – P. 94-99.
6. Ahrorov Z.O., Zaynalov J.R. Theoretical aspects of improving the system of taxation. // Journal of Critical Reviews. 2020; 7(7): 83-90. [doi:10.31838/jcr.07.07.14](https://doi.org/10.31838/jcr.07.07.14)
7. Imomkulov T.B. Financial Aspects of Selection of Investment Projects by Enterprises in Developing Market Conditions. // European Journal of Business and Management. Vol.12, No.5, 2020. – p. 51-54.
8. Barulin S.V., Kazak A. Yu., Slepuxina Yu. E. Optimizatsiya nalogovyx lgot na osnove ix otsenki //Vestnik UrFU. Seriya: Ekonomika i upravlenie. – 2014. № 6. – S. 117-127.
9. Milyakov N.V. Nalogi i nalogooblojenie: kurs leksiy. – M.: INFRA-M, 2000. - 347 s.
10. Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2005. – 154 b.
11. Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. - 240 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

